

## HUQUQIY ONGINI OSHIRISHDA MAKTABLARNING ROLI

**Sattorov Dilshod Yuldashevich***Ilmiy rahbar- bojxona instituti o'qituvchisi***Raximov Sardor Alimardon o'g'li***Bojxona instituti 1-kurs 525-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola globallashtirish va axborot asrida yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda ta'lim muassasalarining o'rnini va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qiladi. Ta'lim tizimi shaxsning ongli fuqaro sifatida shakllanishi, uning qonunlarga hurmat ruhida kamol topishini ta'minlashda asosiy institut ekanligi olimlar qarashlari asosida ochib berilgan. Maqolada asosiy huquqiy atamalarga ta'rif berilgan, huquqiy ta'limni samarali tashkil etish mexanizmlari, ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya madaniyatini shakllantirish usullari hamda Prezident farmonlari va soha olimlarining ilmiy g'oyalari asosida bu boradagi dolzarb vazifalar ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, maktablar, yoshlar, huquqiy ta'lim, demokratik qadriyatlar, fuqarolik jamiyati, qonuniylik, huquqiy tarbiya, huquqiy sotsializatsiya.*

**Annotation:** *This article provides a scientific and theoretical analysis of the role and significance of educational institutions in enhancing the legal awareness and legal culture of young people in the context of globalization and the information age. Based on the views of scholars, the education system is presented as a key institution in shaping individuals as conscious citizens and fostering their development in the spirit of respect for the law. The article defines key legal concepts, examines mechanisms for the effective organization of legal education, methods of forming a culture of legal upbringing in educational institutions, and analyzes current tasks in this area based on presidential decrees and the scientific ideas of field experts.*

**Keywords:** *Legal awareness, legal culture, schools, youth, legal education, democratic values, civil society, rule of law, legal upbringing, legal socialization.*

**Аннотация:** *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются роль и значение образовательных учреждений в повышении правового сознания и правовой культуры молодежи в условиях глобализации и информационного общества. На основе взглядов ученых раскрывается роль системы образования как основного института формирования личности сознательного гражданина и воспитания уважения к закону. В статье даются определения основным правовым понятиям, рассматриваются механизмы эффективной организации правового*

*образования, методы формирования культуры правового воспитания в образовательных учреждениях, а также анализируются актуальные задачи в данной сфере на основе указов Президента и научных идей отраслевых ученых.*

**Ключевые слова:** *Правовое сознание, правовая культура, школы, молодежь, правовое образование, демократические ценности, гражданское общество, законность, правовое воспитание, правовая социализация.*

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekiston strategiyasi fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash, inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarishga qaratilgan. Bu jarayonda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Negaki, jamiyatning ertangi kuni, huquqiy davlat qurilishining muvaffaqiyati bevosita yosh avlodning qonunni anglash, unga rioya etish va o'z huquqlarini himoya qila olish salohiyatiga bog'liqdir. Bu masalada esa, ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos bo'lib, ular yoshlarning nafaqat aqliy, balki huquqiy kamoloti uchun ham mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Ta'lim muassasalari, maktabdan tortib oliy o'quv yurtlarigacha, shaxsning shakllanishidagi eng muhim ijtimoiy institutdir. Ular yoshlarga faqat aniq fanlar yoki adabiyotni o'rgatibgina qolmasdan, balki ularni jamiyatning to'laqonli, qonunga itoatkor va faol a'zosi sifatida tarbiyalashi lozim. Huquqiy ta'limni konstitutsiyaviy asoslardan boshlab, turli huquq sohalari (mehnat, oila, ma'muriy, jinoiy) bo'yicha chuqur bilim berish orqali yoshlarda shaxsiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlarga hurmat tuyg'usini uyg'otish asosiy vazifadir.

Huquqiy ongni shakllantirishda ta'lim funksiyasining o'rni masalasi huquq nazariyasi va huquq falsafasida keng yoritilgan bo'lib, ko'plab olimlar bu funksiyani huquqning jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, huquqiy ong shaxsda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki tizimli huquqiy ta'lim, tarbiya va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi.

S.S. Alekseyev huquqiy ongning ta'lim funksiyasini huquqiy normalarning ongda faol o'zlashtirilishi va shaxs xulq-atvoriga ixtiyoriy ravishda ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, huquq faqat majburiy qoidalar majmui bo'lib qolmasdan, balki insonni tarbiyalovchi, uning ijtimoiy mas'uliyatini oshiruvchi vosita bo'lishi lozim. Alekseyev huquqiy ta'lim orqali shaxsda qonunga hurmat va unga ongli itoat qilish shakllanishini huquqiy ongning eng muhim belgisi deb hisoblaydi. U huquqiy ongning ta'lim funksiyasi orqali huquq jamiyat a'zolari tomonidan ichki ehtiyoj sifatida qabul qilinishini ta'kidlaydi

Amerikalik pedagog va psixolog L. Kolbergning "Axloqiy rivojlanish nazariyasi"ga ko'ra, insonning axloqiy va huquqiy me'yorlarni qabul qilish darajasi bir necha bosqichdan o'tadi. Ta'lim muassasasi aynan shu bosqichlarni tezlashtiruvchi va chuqurlashtiruvchi muhitdir. Ta'lim orqali yoshlar qonunga rioya qilish "jazodan qochish" (pre-konventsional bosqich) sababli emas, balki "ijtimoiy shartnoma" (post-konventsional bosqich) asosida, ya'ni jamiyat farovonligi uchun zarurligini anglab etishlari lozim. Bu, ta'limda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (keys-stadi) usulini qo'llashni taqozo etadi.

O'zbekistonlik olim A. H. Saidov huquqiy madaniyatni shaxsning huquqiy faolligi, qonunlarga hurmati va huquqiy tizimga ishonchi bilan bog'liq holda o'rganadi. U ta'lim tizimini huquqiy sotsializatsiyaning asosiy mexanizmi deb hisoblaydi, u erda yoshlar huquqiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradilar [2] Saidovning ta'kidlashicha, huquqiy madaniyat — bu nafaqat bilish, balki harakat qilish qobiliyatidir.

G.V. Maltsev huquqiy ongning ta'lim funksiyasini huquqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash vositasi sifatida baholaydi. Unga ko'ra, huquqiy ta'lim insonda faqat qonunlarni bilish emas, balki adolat, tenglik, erkinlik kabi huquqiy qadriyatlarni anglash va qabul qilishga xizmat qiladi. Maltsev huquqiy ongning ta'lim funksiyasi orqali huquq jamiyatda ijtimoiy qadriyat sifatida qaror topishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, huquqiy ta'limsiz huquqiy madaniyatni shakllantirish mumkin emas.

#### Ta'lim Mexanizmlari va Amaliy Yondashuvlar

Ta'lim muassasalari huquqiy ongni oshirishda asosan quyidagi mexanizmlardan foydalanishlari kerak:

1. Integratsiyalashgan yondashuv: Huquqiy bilimlar "Konstitutsiya asoslari", "Davlat va huquq asoslari" kabi maxsus fanlar orqali berilishi bilan birga, tarix, adabiyot, ijtimoiy fanlar kabi darslarga ham singdirilishi kerak.

2. Interfaol va innovatsion usullar: Quruq ma'ruzalar o'rniga, ta'lim muassasalari munozaralar, keys-stadi tahlillari, huquqiy o'yinlar, uydirma sud jarayonlari (*moot court*), virtual huquqiy simulyatsiyalar kabi interfaol usullarni keng qo'llashi kerak. Bu V. N. Kudryavtsev aytganidek, bilimni hissiy jihatdan boyitadi.

3. Amaliyotga yo'naltirish (Huquqiy klinika): Yoshlarning Huquqni Muhofaza Qilish Organlari, sudlar, Adliya vazirligi tizimidagi muassasalar bilan uchrashuvlari, sayohatlari tashkil etilishi muhimdir. Huquqiy klinikalarni tashkil etish orqali talabalar o'z tengdoshlariga yoki aholiga bepul huquqiy maslahatlar berish amaliyotini o'zlashtirishi ularning huquqiy ko'nikmalarini oshiradi [3]. Bu A. H. Saidov ta'kidlagan huquqiy faollikni oshiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilanganidek, "Inson qadri va manfaatlari" tamoyili barcha